



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2025-YIL – ATROF-MUHITNI ASRASH VA “YASHIL” IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2025-yil 22-dekabr, № 269 (9164)

Dushanba

Saytimga o'tish uchun QR-kodini
telefoningiz orqali skaner qiling.



O'ZBEKISTON PREZIDENTI YOII SAMMITIDA ISHTIROK ETDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 21-dekabr kuni Sankt-Peterburg shahrida Oliy Yevroosiyo iqtisodiy kengashining navbatdagi yig'ilishida kuzatuvchi davlat rahbari maqomida ishtirok etdi.



Belarus Respublikasi Prezidenti Aleksandr Lukashenko raisligida o'tgan uchrashuvda Armaniston Respublikasi Bosh vaziri Nikol Pashinyan, Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev, Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov va Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin ham qatnashdilar. YOII kuzatuvchi davlatlari rahbarlari – Kuba Respublikasi Prezidenti Migel Dias-Kanel va Eron Islom Respublikasi Prezidenti Mas'ud Pezeshkiyon ishtirokchilarga videomurojaat yo'lladilar. Taklif qilingan davlat vakili sifatida tadbirda Indoneziya Respublikasi savdo vaziri Budi Santoso ishtirok etdi.

Kun tartibidan ko'p tomonlama savdo-iqtisodiy hamkorlikni yanada kengaytirish, sanoat kooperatsiyasi loyihalarini qo'llab-quvvatlash, transportni rivojlantirish va o'zaro hamkorlikning ustuvor yo'nalishlarida qo'shma dasturlarni amalga oshirish masalalari o'r'in oldi.

O'zbekiston Prezidenti nutqining avvalida YOII mamlakatlari bilan o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada kengaytirish mamlakatimiz tashqi iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanligini ta'kidladi. Keyingi to'rt yilda kuzatuvchi

davlat maqomidagi hamkorlik davrida O'zbekistonning ittifoq mamlakatlari bilan tovar ayirboshlash hajmi qariyb ikki baravar oshdi va 20 milliard dollarga yaqinlashdi.

Savdo, sanoat, moliya tizimi, qishloq xo'jaligi, transport va boshqa sohalarda 40 ga yaqin chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan Yevroosiyo iqtisodiy komissiyasi bilan 2026-yilgacha hamkorlik rejasi tizimli ravishda amalga oshirilmoqda. Kelgusi yilda qo'shma Ishchi guruhning beshinchi yig'ilishini Toshkentda o'tkazish rejalashtirilgan.

O'zbekiston savdo va yuk tashishni raqamlashtirish, elektron tijoratni joriy etish va iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish sohalariida YOIIning bir qator tarmoq dasturlarida faol ishtirok etmoqda.

Oliy Yevroosiyo iqtisodiy kengashining bu galgi yig'ilishi doirasida O'zbekiston va YOII o'rtasida bojxona chegaralari orqali o'tkazilayotgan tovarlar va transport vositalari to'g'risidagi ma'lumotni almashish to'g'risida bitim tuzish yuzasidan muzokaralarni boshlash qarori qabul qilindi.

– Ishonchimiz komil, chegaralararo ma'lumotlar almashinuvi bojxona nazorati samaradorligini oshirishga,

kechikishlarni kamaytirishga va transport tizimlarimizni Yevroosiyo yo'laklariga integratsiya qilishga xizmat qiladi, – deya ta'kidladi davlatimiz rahbari.

O'zbekiston Prezidenti Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi bilan o'zaro manfaatli hamkorlikning ustuvor yo'nalishlariga alohida to'xtalib o'tdi.

Xususan, davlatimiz rahbari o'zaro tovar ayirboshlashda savdo to'siqlarini bosqichma-bosqich bartaraf etish muhimligini ta'kidladi. Texnik jihatdan tartibga solish, sanitariya va fitosanitariya standartlariga yondashuvlarni uyg'unlashtirish uchun MDH va YOII institutlari faoliyatini muvofiqlashtirishni kuchaytirish zarurligi ko'rsatib o'tildi. Shu ma'noda, O'zbekiston yetakchisi ortiqcha tartib-taomillarni bartaraf etish va talablarni birxillashtirish bo'yicha “Yo'l xaritasi”ni ishlab chiqish taklifini bildirdi.

Texnik jihatdan tartibga solish, sertifikatlashtirish va bojxona ma'murchiligidagi tafovutlar bilan bog'liq masalalarni tezkor hal etish uchun tarif va notarif to'siqlar bo'yicha “O'zbekiston – YOII” qo'shma Muvofiqlashtiruvchi guruhini tashkil etish taklifi ilgari surildi.

Sanoat sohasidagi hamkorlikni yanada kengaytirish maqsadida

mamlakatimiz rahbari mashinasozlik, energetika, agrosanoat majmui, kimyo va boshqa sohalardagi loyihalar ro'yxatini birgalikda tuzishni taklif qildi.

O'zbekistonning Yevroosiyo taraqqiyot bankiga qo'shilishi munosabati bilan hamkorlikning strategik yo'nalishlarini birgalikda belgilash hamda ustuvor infratuzilmaviy va “yashil” loyihalarini, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlashni qamrab olgan “Yo'l xaritasi”ni ishlab chiqish tashabbusi bildirildi.

Raqamli texnologiyalar sohasidagi hamkorlikni rivojlantirish haqida gapirar ekan, O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov va Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmonga Lev Tolstoy nomidagi Xalqaro tinchlik mukofotini topshirish marosimi bo'lib o'tdi.

Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin huzurida xalqaro mukofotni uning hay'ati raisi, Mariinskiy teatri badiiy rahbari va bosh direktori, Rossiya Katta teatri bosh direktori, dirijyor Valeriy Gergiyev topshirdi.

Uch mamlakat yetakchilari ushbu nufuzli mukofotga Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlashga qo'shgan ulkan

va turistik mahsulotlarning o'zaro bog'liqligini ta'minlash maqsadida davlatimiz rahbari O'zbekiston turizm sohasida integratsiyalashgan axborot resursini shakllantirish ishlariga qo'shilishga ham tayyorligini bildirdi.

Yakunda davlatimiz rahbari O'zbekiston Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi bilan keng qamrovli va o'zaro manfaatli sheriklikni kengaytirishga qat'iy intilishini yana bir bor tasdiqladi.

Rossiya Federatsiyasiga amaliy tashrif doirasida N. A. Rimskiy-Korsakov nomidagi Sankt-Peterburg davlat konservatoriyasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov va Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmonga Lev Tolstoy nomidagi Xalqaro tinchlik mukofotini topshirish marosimi bo'lib o'tdi.

Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin huzurida xalqaro mukofotni uning hay'ati raisi, Mariinskiy teatri badiiy rahbari va bosh direktori, Rossiya Katta teatri bosh direktori, dirijyor Valeriy Gergiyev topshirdi.

Uch mamlakat yetakchilari ushbu nufuzli mukofotga Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlashga qo'shgan ulkan

shaxsiy hisssasi uchun sazovor bo'ldilar.

Hakamlar hay'atining qarorida ta'kidlanganidek, 2025-yil 31-mart kuni Xo'jand shahrida uchta davlat rahbarlari Davlat chegaralarining tutashgan nuqtasi to'g'risidagi shartnoma va Abadiy do'stlik to'g'risidagi Xo'jand deklaratsiyasini imzoladilar va shu bilan xalqaro huquq ustuvorligiga asoslangan umumiy va barobar xavfsizlikni ta'minlash, xalqlar o'rtasida o'zaro anglashuv hamda hamkorlikni mustahkamlashga katta hissa qo'shdilar.

Ushbu mukofot insonparvarlik g'oyalariga sadoqatni ifodalashi va Markaziy Osiyoni tinchlik, farovonlik hamda bunyodkorlik makoniga aylantirish yo'lidagi umumiy hissaning e'tirofi ekanini ta'kidladi. Birodar O'zbekiston, Qirg'iziston va Tojikiston o'rtasidagi munosabatlarda yangi sahifa ochilishi uch mamlakat xalqlarining siyosiy irodasi, o'zaro ishonch va yaxshi qo'shniçilikka intilishi tufayli bo'lgani qayd etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Rossiya Federatsiyasiga amaliy tashrifi davom etmoqda.

O'ZA.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Matbuot xizmati suratlari.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING OLII YEVROOSIYO IQTISODIY KENGASHI YIG'ILISHIDAGI NUTQI

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

Avvalambor, Rossiya Federatsiyasi Prezidenti hurmatli Vladimir Vladimirovich Putinga mehmondo'stlik va bugungi uchrashuvimizni a'lo darajada tashkil etgani uchun bildirilgan minnatdorlik so'zlariga qo'shilaman.

Belarus tomonining, Belarus Respublikasi Prezidenti Aleksandr Grigoryevich Lukashenkoning Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga samarali raisligini alohida qayd etmoqchiman. Bu davrda ko'p tomonlama amaliy hamkorlik yangi sur'at kasb etdi.

Global bozorlarning tobora parchalanib borayotgani, logistika zanjirlarining murakkablashayotgani va investitsiya resurslarini taqsimlashda ustuvor yo'nalishlarning o'zgarayotgani sharoitida biz uchun strategik va tabiiy sheriklarimiz bo'lgan Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi mamlakatlari bilan pragmatik va o'zaro manfaatli hamkorlikni chuqurlashtirish prinsipial ahamiyat kasb etmoqda.

Hurmatli yig'ilish ishtirokchilari!

Kuzatuvchi davlat maqomidagi hamkorlikning so'nggi to'rt yilda O'zbekistonning YOII mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi qariyb ikki barobar oshdi.

Iqtisodiy aloqalar tarkibida yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ulushi ortib borayotgani, kooperatsiya loyihalari kengayib borayotgani barqaror sur'at ko'rsatayotgani ayniqsa muhimdir.

Bu hamkorlarimiz ishlab chiqarish zanjirlarini mustahkamlashdan chinakam manfaatdorligini aks ettiradi.

O'zbekiston Yevroosiyo asosiy formatlarida faol ishtirok etmoqda.

Yevroosiyo iqtisodiy komissiyasi bilan savdo, sanoat, moliya, agrar sanoat va transport sohalariida 40 ga yaqin aniq tadbirlarni o'z ichiga olgan uch yillik reja amalga oshirilmoqda.

Qo'shma Ishchi guruh formatidagi ishlar davom etmoqda: uning beshinchi yig'ilishini kelgusi yilda Toshkent shahrida o'tkazishni rejalashtirmoqdamiz.

Shuningdek, YOIIning elektron savdoni rivojlantirish, yuk tashishni raqamlashtirish va iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish bo'yicha tarmoq dasturlarida ishtirok etmoqdamiz.

O'zbekiston va YOII bojxona chegaralari orqali olib o'tiladigan tovarlar va transport vositalari to'g'risida axborot almashish borasida bitim tuzish bo'yicha muzokaralarni boshlash haqidagi qaror qabul qilinganini olqishlaymiz.

Ishonchimiz komilki, transchegaraviy ma'lumotlar almashinuvi bojxona nazorati samaradorligini oshirish, kechikishlarni kamaytirish va transport tizimlarimizning Yevroosiyo yo'laklariga integratsiyalashga xizmat qiladi.

O'zbekistonning Yevroosiyo taraqqiyot bankiga qo'shilishi hamkorlikni mustahkamlashda muhim bosqich bo'ldi. Bank bilan birgalikda infratuzilmaviy, energetika, metallurgiya, kimyo va boshqa tarmoqlarda istiqbolli loyihalar portfeli shakllantirildi. Hurmatli hamkasblar!

YOII bilan hamkorlikni kengaytirish borasidagi ustuvor yo'nalishlarimizni qisqacha aytib o'tmoqchiman.

Birinchi. Savdo to'siqlarini bosqichma-bosqich bartaraf

etish asosiy vazifa bo'lib qolmoqda.

Texnik jihatdan tartibga solish, sanitariya va fitosanitariya me'yorlari borasidagi yondashuvlarni yaqinlashtirish maqsadida MDH va YOII institutlari o'rtasidagi muvofiqlashtirishni faollashtirish zarur deb hisoblaymiz.

Ortiqcha tartib-taomillarni bartaraf etish va talablarni birxillashtirish bo'yicha “Yo'l xaritasi”ni ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Texnik jihatdan tartibga solish, sertifikatlash va bojxona ma'muriyatchiligidagi tafovutlar bilan bog'liq masalalarni tezkor hal etish maqsadida tarif va notarif to'siqlar bo'yicha “O'zbekiston – YOII” qo'shma Muvofiqlashtiruvchi guruhini tuzishni taklif etamiz.

Ikkinchi. Sanoat kooperatsiyasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqdamiz.

Mashinasozlik, energetika, agrosanoat majmui, kimyo va boshqa tarmoqlardagi loyihalar ro'yxatini birgalikda shakllantirish zarur.

O'zbekistonning ETTBga qo'shilishi munosabati bilan sheriklikning strategik yo'nalishlarini birgalikda belgilab olish hamda ustuvor infratuzilmaviy va “yashil” loyihalarini, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlashni qamrab olgan “Yo'l xaritasi”ni ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Ishonchimiz komilki, Bank nafaqat moliyalashtirish manbai, balki integratsiya loyihalariga investitsiyalarni jalb qilish katalizatoriga aylanishi mumkin.

Uchinchi. Raqamli texnologiyalar sohasidagi hamkorlikni

kuchaytirish niyatidamiz.

Raqamli platformalarni, jumladan, elektron tijorat va raqamli markirovkalashni o'zaro bog'lash bo'yicha YOIK bilan “Yo'l xaritasi”ni tayyorlashni taklif etamiz.

Bojxona ma'muriyatchiligini raqamlashtirish va yuk tashishning “choksiz” modeliga o'tishni ham ustuvor vazifa sifatida ko'ryapmiz.

To'rtinchi. Biz YOIIning biotibbiyot, yangi materiallar, agrotexnologiyalar, energetika va robototexnika kabi yo'nalishlarni qamrab oluvchi texnologik platformalariga qo'shilishdan manfaatdormiz.

Beshinchi. Turizm sohasida integratsiyalashgan axborot resursini shakllantirishga ham qo'shilishga tayyormiz.

Bunday yondashuv mamlakatlarimiz turistik mahsulotlarining o'zaro bog'liqligini ta'minlash imkonini beradi. Hurmatli do'stlar!

O'zbekiston YOII bilan amaliy hamkorlikni yanada kengaytirish tarafdoridir.

Fursatdan foydalanib, Qozog'iston Respublikasi Prezidenti hurmatli Qosim-Jomart Kemelevich Toqayevga Birlashmaga raislik Qozog'istonga o'tishi munosabati bilan muvaffaqiyatlar tilayman.

Barchangizni va birodar xalqlarimizni kirib kelayotgan Yangi yil bilan yana bir bor samimiy tabriklab, tinchlik-osoyshtalik, farovonlik va ravnaq tilayman.

E'tiboringiz uchun rahmat.



Taqqimot

O'ZBEK ADABIYOTI
YANGI ROMAN
BILAN BOYIDI

Buyuk adib Abdulla Qodiriy qalamiga mansub birinchi o'zbek romani – "O'tkan kunlar"ning yaratilganiga 100-yil to'ldi. Bir asrdiki, ushbu o'lmas asar necha avlod adabiyot muhoblari qalbida ezgulik va ma'rifat chirog'ini yoqib, millionlab insonlarni milliy o'zligimiz, azaliy qadriyatlarimiz ruhida tarbiyalab kelmoqda. Uning bosh qahramonlari ko'ngillardan chuqur joy olgan bo'lib, o'z davrida ham, hozirgi kunda ham kitobxonlar ularning keyingi taqdiriga qiziqib qarashi, asarning davomini xayolan tasavvur qilib yurishini ko'rish, kuzatish mumkin.



Ulug'larning ulug'ligi shundaki, ular hamma gapni har doim ham ochiq aytavermaydi. Nozik ishoratlar qiladiki, bunda aql egalrigina anglay oladigan botiniy belgi-alomatlar mujassam, desak, ayni haqiqat.

"O'tkan kunlar" romanining so'nggi sahifalarida "Yozg'uchidan" deb berilgan muxtasar izohda Abdulla Qodiriy asar bosh qahramoni Otabekning Vatan mudofaasi yo'lida halok bo'lgani, uning Yodgorbek degan o'g'lidani ikki farzand qolgan, ularning biri sho'ro hukumatinin mas'ul ishchilaridan ekani, ikkinchisi esa "bosmachilar" safiga qo'shilib ketgani haqida yozib, g'aroyib bir asarning suyuq liniyasini belgilab beradi. Vaqt-soati yetib, adabiyotimizning qaysidir iste'dodli vakili shu mavzuni davom ettirib, yangi tarixiy asar yaratishini kutish mumkin edi. Va oradan 100-yil o'tib, mana shu go'zal orzu o'zining badiiy inkishofini topdi. Ko'p yillik ijodiy faoliyati davomida Abdulla Qodiriy o'ziga ma'naviy ustoz deb bilib, qalam tebratib kelayotgan taniqli yozuvchi Xayriddin Sulton tomonidan tarixiy hujjatlar asosida yaratilgan badiiy to'qima "Yaldo kechasi" romani uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

21-dekabr kuni poytaxtimizdagi "Shahidlar xotirasi" yodgorlik majmuasida ushbu narsiy asarning taqqimot marosimi bo'lib o'tdi. Ko'pdan buyon kutilayotgan ushbu tadbirida taniqli shoir va yozuvchilar, adabiyotshunos olimlar, ta'lim, madaniyat hamda san'at sohasi namoyandalari, talaba yoshlar, ommaviy axborot vositalari xodimlari qatnashdi.

Darvoqe, taqqimot marosimining aynan shu sanada o'tkazilganida ham o'ziga xos ma'no mujassam. Zero, taqvimga ko'ra, 21-dekabrning 22-dekabrga o'tadigan vaqt oralig'i yilning eng uzun tuni – yaldo kechasi hisoblanadi. Ana shunday ramziy nom bilan atalgan roman esa keng ko'lamli tarixiy asar bo'lib, xalqimiz hayotining mashaqqat hamda iztiroblarga to'la qorong'i tunlaridan hikoya qiladi.

Benazir shoirimiz Muhammad Sharif Gulxaniy qalamiga mansub: *"Bu nechuk tunkim, oni tongi yo'q, Yo muazzinlarining bongi yo'q"*, degan satrlarning romanga epigraf qilib olingani ham shundan dalolat beradi.

Yangi kitobni o'quvchilarga tanitish marosimining ushbu maskanda – Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi joylashgan sokin hududda o'tkazilgani ham bejiz emas. O'tgan asrning mash'um qatag'on yillarida millatimiz, xalqimizning asl farzandlari, ma'rifatparvar jadid bobolarimizning ko'plab mashhur namoyandalari o'sha davrda "Alvasti ko'priki" deb nom olgan mana shu joyda qatl etilgan. Shu bois tadbir avvalida qatag'on qurbonlari xotirasiga hurmat bajo keltirilib, Qur'on tilovat qilindi.

Anjumanda so'zga chiqqan ijodkor ziyolilar, jamoatchilik vakillari mamlakatimizda Prezidentimiz tomonidan milliy tariximizni tiklash, ilmfan, ta'lim-tarbiya, san'at hamda adabiyot sohalariga ko'rsatilayotgan yuksak e'tibor va g'amxo'rlik o'z ijobiy samarasini berayotganini qayd etdi. Jumladan, "Yaldo kechasi" tarixiy romani ana shu yo'ldagi yangi, ulkan bir qadam bo'lgani ta'kidlandi.

Lotin va kiril alifbolarida chop etilgan ushbu kitobning mas'ul muharriri, atoqli adib va tarjimon, O'zbekiston Qahramoni Ibrohim G'afurov asarni zamonaviy o'zbek adabiyotida tamomila kashfiyot, deb baholadi.

Taqqimot marosimida "Yaldo kechasi" romanida XIX asrning ikkinchi yarmi hamda XX asrning birinchi choragida Turkistonda hukm surgan keskin ijtimoiy-siyosiy vaziyat, mustabid tuzum zo'ravonliklari, millatparvar zotlarning fidokorona kurashi, ajdodlarimiz boshiga tushgan cheksiz musibatlar haqqoniy va ta'sirchan tasvirlangani qayd etildi.

– Roman g'oyaviy maqsadi, mavzu-mundariyasi, g'aroyib badiiy kompozitsiyasi jihatidan bugungi adabiyotimiz rivojida, shubhasiz, katta bir voqeadir, – deydi adabiyotshunos olim, akademik Shuhrat Sirojiddinov. – Ushbu asarni zamonaviy o'zbek milliy nasrining "O'tkan kunlar" romanidan keyingi yuz yillik tarixida individualligi va jozibadorligi, milliy ruhi bilan ajralib turadigan yuksak saviyadagi kitob, deb bemalol ayta olamiz. Shu bois bugungi kitobxonlar, ayniqsa, yoshlarimiz, romanda yozilganidek, "Turkistonning tuganmas qayg'usi, elning bedavo dardi, vatandorlik armoni, ozodlik va adolat, ma'rifatli jamiyat orzusi, mahrumiyat va mag'lubiyat alamlaridan, zulm va jaholat hukmron bo'lgan yaldo kechalarning nihoyasiz istibdodidan hasrat va faryod chekib" hikoya qiladigan bu asarni, albatta, o'qib-uqishlari zarur, deb hisoblayman.

Tadbirida mazkur asar Yangi O'zbekistonda davlatimiz rahbari tomonidan amalga oshirilayotgan ochiqlik hamda erkinlik siyosatining hosilasi o'laroq dunyoga kelgani e'tirof etilib, bugungi kunda milliy istiqlolimizni asrash, uni har tomonlama mustahkamlash, yosh avlodni Vatanga muhabbat, mustaqillik g'oyalariiga sadoqat ruhida tarbiyalash jamiyatimiz a'zolarining, avvalo, millat ziyolilarining mas'uliyatli hamda sharaflari burchi ekani alohida ta'kidlandi.

Rahim ShERQULOV
("Xalq so'zi").

CHEMPIONNING BOBOSI BO'LISH BAXTI...

O'z mehnating bilan elga tanilish naqadar maroqli. Farzandlaring ortidan mashhurlik yanada yoqimli va sharaflil. El bilgan farzandlar kamolidan masrur, shuhratidan mag'rur yurish baxtidan ulug' saodat bormi?! Ammo jajji nabiralar ortidan elga tanilish, hurmat-ehtiroim ko'rish har kimga ham nasib etavermaydigan baxt, desak, adashmagan bo'lamiz. Ana shu tolegga erishgan bobolardan biri men bo'ldim...

Faxr

Kamina el nazarida huquqshunos, olim, shoir yoki yozuvchi sifatida emas, balki jahon chempionlarining bobosi sifatida tanildi. Shu martabamni barcha erishgan maqomlarimdan eng ulug'i deb bilaman va bundan faxrlanaman, zavqu shavqqa to'laman. Davralarda "Shaxmat bo'yicha jahon chempionlari – aka-uka Javohir va Islombek Sindorovlarning bobosi" deb tanishtirganlarida ko'pchilik men bilan boshqatdan qochqolashib ko'rishadi, davra to'riga chiqarib, chempionlar, oilamiz va mening sha'nimga maqtovlar yog'diradi, tasannolar aytadi, duolar qiladi.

Nabiralarim bilan o'tgan har onim shodliklarga, hayajonu hissiyotlarga to'la. Ayniqsa, yaqinda ris'ol bergan tarixiy voqea qalbmni misli ko'rilmagun quvonchga, bir umrik iliq xotiralarga to'ldirdi...

Joriy yilning noyabr oyida Hindistonning Goa shahrida bo'lib o'tgan FIDE jahon kubogi yarim finaliga yurtimizning ikki shaxmatchisi – Javohir Sindorov va Nodirbek Yaqubboyev muvaffaqiyatli yetib bordi. Jahon kubogi uchun kurashayotgan 4 shaxmatchidan 2 tasi o'zbekistonlik ekani barcha yurtdoshlarimizda faxr va g'urur uyg'otdi.

Javohir yarimfinalga chiqqach, yuragim bir narsani sezganday turmush o'rtog'im va nabiram Islombek hamrohligida Hindistonga yo'l oldik. To'g'risi, Toshkentda tura o'lmadim. Nabiramni ruhan qo'llab-quvvatlash, yonida turib madad berishni o'zimning burchim deb bildim. Unga aytmasdan yo'lga tushdik. "Syurpriz" qilmoqchi bo'ldik. Bir kun yo'l bosib, Goaga yetib bordik. Javohir bizlarni ko'rib, chunonam quvonib kettidiki!.. Axir katta sinov oldidan unga yaqinlari daldasi, ota-ona duosi juda muhim edi-lat.

Keyingi kuni yarimfinal bahslari davom etdi. Javohir hamyurti Nodirbek bilan tengma-teng "jang" olib bordi va tay-brekda g'olib keldi. Quvonchimizning cheki yo'q edi. Chunki nabiram finalga yo'l olish bilan birga jahon shaxmat toji uchun nomzodlar musobaqasiga yo'llanmani ham naqd qilgandi. Finalda Javohir Xitoyning birinchi



raqamli grossmeysteri Vey lga qarshi dona surdi. Asosiy bahslarda durang qayd etildi. Tay-brekda esa sportchimizning qo'lli baland kelib, raqibini taslim etdi. Va dunyo shaxmat tarixida ilk bor 19 yoshli jahon kubogi sohibiga aylandi. Shu kungi quvonchimizni so'z bilan ifodalash qiyin. Orzularimiz ra'yobga chiqqanidan osmonlarda uchib yurardik go'yo... Mahalliy aholi, shaxmat mutasaddilari, yurtdoshlarimizdan kelayotgan tabriklar, qutlovlarining cheki yo'q edi...

Shu hayajonli lahzalarda ijtimoiy tarmoqlarda davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning poytaxtimizda o'tayotgan Prezident olimpiadasining ochilishiga bag'ishlangan tadbirida nutqini to'xtatib, Javohirning jahon kubogi g'olibi bo'lgani haqidagi xushxabarni faxr-iftixor bilan e'lon qilgani va buni maydondagi minglab yoshlar olqishlagani haqidagi lavhalar tarqalib ketti. Bir quvonchimizga yuz quvonch qo'shildi.

Bir muddat o'tmay davlatimiz rahbarining Javohir bilan gaplashmoqchi ekanini aytishdi. Yurtdoshimizning shuncha ishtirokidan, davlat yumushlaridan ortib, chempion bilan muloqot qilmoqchi bo'lgani qalbmizni cheksiz q'ururga to'ldirdi. Prezidentimiz bilan video-qo'ng'iroqni ulab berganlarida hayajonni tilim kalimaga kelmay qoldi. Davlatimiz rahbari "Assalomu

alaykum, chempionning bobosi" deb murojaat etganida oyoqlarim qaltirab ketti, o'pkam to'lib, gapirolmay qoldim. Prezidentimizga salom berib, telefonni nabiramning qo'lga tutishga o'zimda kuch topdim. Biroz o'zingma kelib, Javohirning Yurtboshimiz bilan

tiyolmagani rost. Endi ota-onaning quvonchu shodliklarini tasavvur qilavering...

So'ng chempionga so'z berildi. U ingliz tilida ravon so'zlab, muxlislarni xursand qildi. Tashkilotchilar "Javohir, senga bir sovg'a hozirladik", deganda hammamiz hayron bo'ldik. Bir payt chiroqlar o'chirilib, hammaning nigohi monitorga qaratildi. Ekranida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutq so'zlayotgani, shu payt kutilmaganda unga xabar yetkazilgani, davlatimiz rahbari gapirishdan biroz to'xtab, so'ng mamnuhiyat bilan Hindistondagi shaxmat bo'yicha jahon kubogida Javohir Sindorov g'olibligini qo'lga kiritib, tarixiy zafar quchgani haqidagi xabarni e'lon qilgani, o'yingoh bir qalqib, yoshlarning "O'zbekiston, O'zbekiston!" degan hayqiriqlari yangragani namoyish etildi.

Davlatimiz rahbarining chempionga munosabati, vatandoshlarning olqishi, biz-kumayli, yuzlab xorijlik shaxmatchi va murabbiylarni lo'l qoldirdi. Tabriklar, qutlovlar tinmad... O'lam-olam quvonch bilan ertasi kuni saharda Mumbayga, so'ng Delhi shahriga yetib keldik. Aeroportda bizni O'zbekistonning Hindistondagi Favqulodda va muxtor elchisi Sardor Rustamboyev jamoasi bilan iliq kutib oldi. Elchixonona nomidan sovg'alalar ulashdi. Toshkentga uchadigan samolyotda ham ekipaj a'zolari chempionga alohida hurmat ko'rsatishdi.

...Ommaviy axborot vositalarida batafsil yoritilgani bois Toshkentdagi

“Prezidentimiz o'z nutqida ajdodlarimizning ilmiy va ma'naviy merosi, birinchi va ikkinchi Renessans allomalari haqida gapirib, ularning avlodlari uchinchi Renessans poydevorini qurishga qodirligini eslatdi. Va 19 yoshli Javohirning shaxmat bo'yicha jahon kubogini qo'lga kiritgani ham buning yorqin dalili ekanini ta'kidladi.”

Salo'tmaybut tarixiy videomuloqot butun dunyo ijtimoiy tarmoqlarida tarqaldi. Bir muddatdan so'ng taqdirlash marosimiga yig'ildik. Bizni chempionning ota-onasi sifatida eng oldingi o'rinlarga o'tqazishdi. Javohir shohsupaga chiqib, jonajon Vatanimiz madhiyasi yangraganda, ustidan zarlar sochilib, olqishlar avjiga chiqqanda bu holatni O'zbekistondan kuzatib turgan yurtdoshlarimiz ko'z yoshlarini

bayramona kutib olishu tantanali marosimlardan ko'pchilik xabardor. Bu o'rinda Javohirga qimmatbaho sovg'alalar, pul mukofotlari bilan birga, Prezidentimizning farmoniga ko'ra, "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sportchi" faxriy unvoni berilgani sevinchimizga sevinch qo'shganini alohida urg'ulamoqchiman.

O'sha kuni kamina 65 yoshni qarshilayotgandi. Nabiram

Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 150-yilligi

JASORAT VA IBRAT MAYOG'I



Jadid bobolar bosib o'tgan yo'l, ular qoldirgan ma'naviy meros, ko'rsatgan jasorat, hatto ularning armonlari ham kelgusi avlod uchun mayog' vazifasini o'taydi. Negaki, ular yurtini nafaqat ozod qilish, balki rivojlangan davlat qatoriga qo'shish uchun jonlarini qurbon qilgan zukko va jasur ajdodlarimizdir.

Prezidentimiz tomonidan jadidchilik harakati, uning namoyandalari, xususan, Turkiston jadidchilik harakati asoschisi Mahmudxo'ja Behbudiy shaxsi, faoliyatiga e'tibor yuqori darajaga ko'tarildi. Avvalo, davlatimiz rahbari farmoni bilan Mahmudxo'ja Behbudiyga yurtimizning oliy mukofotlaridan biri – "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni berildi. Toshkent shahridagi Adiblar xiyobonida Behbudiyning muazzam haykali o'rnatildi, Samarqand shahrida o'zi yashab ijod qilgan, "Samarqand" gazetasi, "Oyna" jurnali tahririyatlari faoliyat ko'rsatgan binoda uy-muzeyi ochildi, iste'dodli dramaturglar uchun mukofot ta'sis qilindi. Shuningdek,

O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetida uning nomida ilmiy maktab tashkil etildi, talabalar uchun Behbudiy stipendiyasi ta'sis qilindi.

Joriy yil esa biz, jadidshunoslar uchun hech mubolag'asiz Mahmudxo'ja Behbudiy yili bo'ldi. Davlatimiz rahbarining "Turkiston jadidlik harakatining asoschisi, atoqli adib va jamoat arbobi, noshir va pedagog Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 150-yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qarori mazkur ishlarni yangi pog'onaga ko'tardi.

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi homiyiligidagi allomaning ikki jildlik asarlari chop etildi. Uning faoliyati bo'yicha doktorlik dissertatsiyasi himoya qilindi, ijodi haqida bir necha risolalar chiqdi. Turkiston ozodligi yo'lida jonini fido etgan bu donishmand bobomiz faoliyati dunyo olimlari ishtirokidagi xalqaro anjumanlarda yil bo'yi o'rganildi.

Ana shu ishlar qatorida Samarqand viloyatining Toyloq tumanida Mahmudxo'ja Behbudiy xotirasiga bag'ishlangan keng qamrovli ma'naviy-ma'rifiy tadbir ham ko'tarinki ruhda o'tkazilganini ta'kidlash lozim.

Ushbu tadbir doirasida Turkiston dahosi tug'ilib o'sgan Toyloq tumanining Baxshitepa mahallasida mo'jaz bog' yaratildi va unga "Mahmudxo'ja Behbudiy bog'i" deya nom qo'yildi. Bog' to'rida Mahmudxo'ja Behbudiy muzeyi ochildi. Uning yonida Mahmudxo'ja Behbudiy nomidagi o'quv markazi ish boshladi. Alloma o'z davrida orzu qilgan Mahmudxo'ja Behbudiy kutubxonasi yoshlar uchun bilim o'chog'iga aylandi. Hovlida esa ma'rifatparvar bobomiz byusti o'rnatildi, uning tantanali ochilish marosimida nuroniylar, olimlar, ziyolilar, mahalla ahli va albatta, yoshlar qatnashdi.

Shu kuni Shopo'lot mahallasidagi madaniyat markazida ilmiy-amaliy konferensiya ham o'tkazildi. Unda olimlar, jurnalistlar va ziyolilar Behbudiyning hayot yo'li, jadidchilik harakatidagi o'rni, serqirra faoliyati yuzasidan ma'ruzalar qildi. Allomaning evarasi Shohruh Behbudiy ko'rsatilayotgan e'tibor uchun avlodlari nomidan, avvalo, davlatimiz rahbariga,

olimlar va tadbir tashkilotchilariga, mahalla ahliga minnatdorlik bildirdi.

Taniqli adib Farmon Toshev qalamiga mansub "Behbudiy" nomli spektakl namoyishi anjumanga o'zgacha shukuh baxsh etdi. Shu paytgacha yaratilgan asarlarda Behbudiyning so'nggi kunlari bolsheviklar to'qigan afsonalar asosida namoyish qilinardi. Iste'dodli rejissyor Farhod Boynazarov sahnalashtirgan mazkur pyesa ulardan farqli ravishda, ya'ni haqiqat namoyishi bilan yakunlanibdi, bu lahzalarda aytilgan so'zlar, chekilgan faryod tomoshabinlar yuragini larzaga keltirdi. Samarqand viloyati musiqali drama teatrlarining ijodiy jamoasi ijrosidagi mazkur qahna asari tomoshabinlarda buyuk jadid siymosining murakkab va ibratli hayot yo'lini badiiy tarzda yoritib berdi. Tomoshabinlar Turkiston dahosi taqdirini gavdalantirgan iqtidorli aktyor Laziz Mamatqulov va ijodiy jamoa mahoratlari ko'zlarida yosh bilan uzoq vaqt olqishladi.

Kun davomida bo'lib o'tgan tadbirlar Mahmudxo'ja Behbudiy merosini chuqur o'rganish, uni yoshlar ongiga singdirish va milliy ma'naviyatimizni yuksaltirish yo'lidagi muhim qadam bo'ldi.

Halim SAIDOV,
O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti professori.

Turkiyada 9 – 17 yoshgacha bo'lgan o'g'il bolalar va qizlar o'rtasida uyushtirilgan shaxmat bo'yicha jahon chempionatida O'zbekiston terma jamoasi umumjamoa hisobida 1-o'rinni egalladi.

Xalq so'zi

Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-1242. 10 379 nusxada bosildi. Hajmi – 2 tabaq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:

Devonxona 71-259-74-51; Kotibxona 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir G'. Bahomir.
Musahhifi SH. Mashrabboyev.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni – 01.50 Topshirildi – 02.00

1 2 3 4 5 6